



MAXSUS SUBYEKT ISHTIROKIDAGI JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH JARAYONLARI

O'zbekiston Respublikasi Toshkent davlat transport universiteti
Yurisprudensiya(xalqaro transport huquqi)
yo'nalishi talabasi : Normurodov Sherzod Shuxratovich

Annotatsiya: Mazkur ishda ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlarini jinoyat-huquqiy jihatdan farqlash hamda ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu jinoyatlarning obyektlari, obyektiv va subyektiv tomonlari, ishtirokchilar tarkibi hamda zo'rlik ishlatish belgilari o'rganiladi. O'zbekiston va xorijiy huquqni qo'llash amaliyoti qiyosiy tahlil qilinib, qonunchilikni takomillashtirishga sayyor takliflar ilgari suriladi. Mazkur jinoyatlarni aniq farqlash jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ommaviy tartibsizliklar, Guruh bezoriligi, Jinoyat kvalifikatsiyasi, Jamoat tartibi, Jamoat xavfsizligi, Jinoyat huquqi, Jinoyat tarkibi, Zo'rlik ishlatish, Ishtirokchilar tarkibi, Huquqni qo'llash amaliyoti.

Аннотация: В данной работе рассматриваются проблемы уголовно-правового разграничения массовых беспорядков и группового хулиганства, а также сложности их правильной квалификации. В ходе исследования анализируются объекты преступлений, их объективные и субъективные признаки, состав участников и роль насилия. На основе сравнительного анализа практики применения уголовного законодательства Узбекистана и зарубежных стран выработаны предложения по совершенствованию действующих норм. Обосновывается значение правильной квалификации указанных преступлений для обеспечения общественного порядка и общественной безопасности.



Ключевые слова: Массовые беспорядки, Групповое хулиганство, Квалификация преступлений, Общественный порядок, Общественная безопасность, Уголовное право, Состав преступления, Применение насилия, Состав участников, Правоприменительная практика.

Abstract: This study examines the issues of criminal law differentiation between mass riots and group hooliganism, as well as the difficulties in their proper legal qualification. The research analyzes the objects of these crimes, their objective and subjective elements, the composition of participants, and the role of violence. A comparative analysis of the criminal law enforcement practices of Uzbekistan and foreign countries is conducted, and proposals for improving current legislation are presented. The importance of accurate qualification of these crimes for ensuring public order and public safety is substantiated.

Keywords: Mass riots, Group hooliganism, Crime qualification, Public order, Public safety, Criminal law, Corpus delicti, Use of violence, Participants, Law enforcement practice.

Kirish

Bugungi kunda jamiyatda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada sodir etiladigan jinoyatlar, xususan ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jamiyat barqarorligiga, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligiga jiddiy tahdid soladi. Shu bois mazkur jinoyatlarning oldini olish, ularni to'g'ri baholash va jinoyat-huquqiy jihatdan aniq kvalifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlari tashqi belgilariga ko'ra bir-biriga o'xshash bo'lib, ularni farqlash jarayonida tergov va sud organlari tomonidan muayyan qiyinchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Ayniqsa, jinoyatning obyektiv tomoni, ishtirokchilar tarkibi, zo'rlik ishlatilganlik darajasi hamda jinoyat qasdining yo'nalishini aniqlash masalalari kvalifikatsiya jarayonida murakkablik tug'diradi. Natijada ayrim hollarda



jinoyat noto'g'ri malakalanib, bu esa adolatli sud qarorining chiqarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlarini jinoyat-huquqiy jihatdan farqlashning nazariy va amaliy muammolarini ochib berish, ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilish mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ishda jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari, ishtirokchilar tarkibi hamda huquqni qo'llash amaliyotining xususiyatlari o'rganiladi.

Asosiy qism

Mazkur maqolada ommaviy tartibsizliklar va bezorilik jinoyatlarini jinoyat-huquqiy jihatdan to'g'ri kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan muammolar keng yoritilgan. Amaliyotda ushbu jinoyatlarni bir-biridan farqlash har doim ham oson kechmaydi, chunki ularning tashqi ko'rinishi, sodir etilish shakli va ishtirokchilarning xatti-harakatlari ko'p hollarda bir-biriga o'xshash bo'ladi. Shu bois jinoyatni noto'g'ri baholash, ya'ni bir jinoyat tarkibini boshqasi bilan adashtirish holatlari uchrab turadi.

Maqolada O'zbekiston va Rossiya huquqni qo'llash amaliyoti misolida ommaviy tartibsizliklar va bezorilik jinoyatlari bo'yicha sodir etilgan huquqbuzarliklar hamda sud qarorlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda jinoyatning obyektiv tomoni, ya'ni jamoat tartibiga real tahdid mavjudligi, zo'ravonlik darajasi, qurol yoki boshqa xavfli vositalardan foydalanilganligi, shuningdek, jinoyat ishtirokchilarining soni va ularning roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, jinoyatning ommaviy tusga ega yoki ega emasligi masalasi kvalifikatsiya jarayonida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlari o'zining jinoiy-huquqiy tabiati, yo'nalishi va oqibatlariga ko'ra murakkab jinoyatlar sirasiga kiradi. Bu turdagi jinoyatlarda ishtirokchilarning tajovuzkorligi, ularning harakatlarining davomiyligi, jamoat tartibiga yetkazilgan zarar hamda jamiyat uchun xavflilik



darajasi birgalikda baholanadi. Shu sababli mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda faqat tashqi belgilar bilan cheklanib qolish noto'g'ri hisoblanadi.

Shu bilan birga, fuqarolarning o'z iqtisodiy, siyosiy va fuqarolik huquqlarini amalga oshirish maqsadida yig'ilishlar, mitinglar va boshqa jamoaviy tadbirlar o'tkazish huquqi mavjud. Mazkur huquqlar demokratik jamiyatning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda esa ommaviy tadbirlar bilan bog'liq holatlarda jinoyat-huquqiy normalarni qo'llashda ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki noto'g'ri yondashuv fuqarolarning qonuniy huquqlariga asossiz ravishda cheklov qo'yilishiga olib kelishi mumkin.

Muallif fikriga ko'ra, jinoyat qonunchiligining asosiy vazifasi faqat jazolash yoki cheklash bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, jinoyat sodir etgan shaxsni qayta tarbiyalash, uni jamiyatga xavf tug'dirmaydigan shaxs sifatida qaytarish maqsadi ustuvor bo'lishi kerak. Bu yondashuv jinoyat huquqining insonparvarlik tamoyiliga mos keladi.

Hozirgi davrda davlat va jamiyat yirik iqtisodiy hamda siyosiy o'zgarishlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda turli ijtimoiy guruhlar, manfaatlar va qarashlar o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi tabiiy holatdir. Shu sababli davlat hokimiyati va fuqarolar o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlik muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday murakkab vaziyatlarda jamoat tartibi va xavfsizligiga tajovuz qiluvchi nizolar va ziddiyatlar paydo bo'lishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Davlat bunday holatlarni huquqiy normalar, xususan jinoyat huquqi normalari orqali tartibga solishga intiladi. Ommaviy tartibsizliklar va bezorilik jinoyatlari uchun javobgarlikning belgilanishi ham aynan jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jamiyatda barqarorlikni saqlash maqsadiga qaratilgan. Shu bois ushbu jinoyatlarni to'g'ri farqlash va aniq kvalifikatsiya qilish nafaqat huquqni qo'llash amaliyoti, balki jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.



Shuni alohida ta'kidlash joizki, qonunlar insonlar tomonidan yaratiladi va inson omili mavjud bo'lgan har qanday sohada mutlaq mukammallikni ta'minlash mushkuldir. Aynan shu sababli qonunchilikda ayrim noaniqliklar, ziddiyatlar yoki bo'shliqlar uchrab turadi. Bunday holatlar jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi hamda oxir-oqibat sud qarorlarining noto'g'ri yoki adolatsiz chiqarilishiga sabab bo'lishi mumkin. Jinoyat-huquqiy normalarni noto'g'ri talqin qilish yoki ularni amaliyotda xato qo'llash shaxsning asossiz ravishda javobgarlikka tortilishiga yoki, aksincha, jinoyatning yetarlicha baholanmasligiga olib keladi.

O'zbekiston huquqni qo'llash amaliyotida tahlil qilinayotgan normalar bo'yicha jiddiy qonun buzilishlari yoki sud amaliyotida keng muhokama qilingan holatlarga duch kelinmadi. Biroq Rossiya Federatsiyasi sud amaliyotida bunday misollar mavjud. Jumladan, tergov organlari tomonidan bir guruh shaxslar ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etganlikda ayblangan bo'lsa-da, sud jarayonida ushbu holatlar qayta baholangan. Ulyanovsk viloyat sudi tomonidan chiqarilgan hukmga ko'ra, ayrim ayblanuvchilar oqlangan, boshqalari esa ommaviy tartibsizliklar jinoyati emas, balki Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 213-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan guruh bezoriligi sifatida qayta malakalangan. Mazkur hukm Rossiya Federatsiyasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan 2005-yil 22-dekabrdagi kassatsiya ajrimi bilan o'zgarishsiz qoldirilgan. Ushbu holat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda xatolarga yo'l qo'yilishi mumkinligini va sudlar tomonidan bunday xatolarni tuzatish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 244-moddasiga bir necha bor o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ham ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muammolar mavjudligini tasdiqlaydi. Qonunchilikka tez-tez o'zgartirish kiritilishi, bir tomondan, huquqni qo'llash amaliyotidagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, mazkur normalarning dastlab yetarlicha aniq va mukammal bo'lmaganidan dalolat beradi.



Yuqorida ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlarining huquqiy tabiati tahlil qilinarkan, ushbu jinoyatlarning ayrim belgilari tashqi jihatdan o'xshash ekanini qayd etish lozim. Har ikkala jinoyat ham jamoat tartibiga qarshi qaratilgan bo'lib, ko'pincha bir necha shaxslar ishtirokida sodir etiladi. Ommaviy tartibsizliklar, odatda, katta guruh shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, bezorilik esa qonunda belgilangan holatlarda bir nechta shaxslarning birgalikdagi harakatlari orqali sodir etilishi mumkin.¹

Biroq ushbu jinoyatlarni farqlashda ularning ichki mohiyati va sodir etilish mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy tartibsizliklar ko'pincha stixiyali tarzda, ya'ni ommaning o'z-o'zidan harakatga kelishi natijasida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, bunday tartibsizliklarning ortida yashirin yoki ochiq tarzda harakat qiluvchi tashkilotchilar va qo'zg'atuvchilar bo'lishi mumkin. Bezorilik jinoyatida esa vaziyat boshqacha bo'lib, jinoyatni sodir etishda ishtirok etgan shaxslarning aksariyati bevosita bajaruvchi hisoblanadi, tashkilotchining roli esa alohida ajralib turadi.

Demak, ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlarini farqlashda ishtirokchilar tarkibi, ularning roli, jinoyatning kelib chiqish sabablari va sodir etilish shakli alohida e'tiborga olinishi lozim. Aynan shu omillarni to'g'ri baholash jinoyatni aniq kvalifikatsiya qilish va adolatli sud qarorini chiqarishning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlari qasd qaratilgan obyektiga ko'ra ham bir-biridan farqlanadi. Ko'plab mutaxassislarning fikriga ko'ra, ommaviy tartibsizliklar sodir etilganda, avvalo, jamoat xavfsizligiga tajovuz qilinadi. Chunki bunday holatlarda katta miqdordagi odamlar ishtirok etadi, vaziyat nazoratdan chiqadi va jamiyat uchun real xavf yuzaga keladi. Guruh bezoriligi jinoyatida esa asosiy zarar jamoat tartibiga yetkaziladi, ya'ni ijtimoiy muhitdagi tinchlik va osoyishtalik buziladi. Biroq mazkur belgilarni voqea sodir

¹ Borovikova V.V. Массовые беспорядки: уголовно-правовая характеристика. — Москва, 2010.



bo'lgan joyni dastlabki ko'zdan kechirish jarayonidayoq aniq ajratib olish har doim ham oson bo'lavermaydi.

Shu sababli jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda faqat yuzaki belgilar bilan cheklanmasdan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan barcha holatlar, vaziyatning rivojlanishi, voqea joyining xususiyatlari hamda ishtirokchilarning xatti-harakatlari sinchiklab va har tomonlama o'rganilishi lozim. Aynan kompleks yondashuvgina mazkur jinoyatlarning haqiqiy mohiyatini aniqlash imkonini beradi.²

Ommaviy tartibsizliklar jarayonida qurol, portlovchi qurilmalar yoki portlovchi moddalar qo'llanilishi ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin. Biroq guruh bezoriligi jinoyatlari ham ayrim hollarda qurol yoki qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan turli buyumlar, shuningdek, portlovchi moddalar va qurilmalar bilan sodir etilishi mumkin. Ushbu jihat ham amaliyotda jinoyatlarni farqlashni murakkablashtiradi. Har ikkala jinoyat turi ko'pincha fuqarolarga nisbatan zo'ravonlik qo'llash, tan jarohati yetkazish yoki hokimiyat vakillariga qurolli qarshilik ko'rsatish bilan bir vaqtda sodir etilishi mumkin. Natijada jinoyatning tashqi ko'rinishi o'xshash bo'lib, ularni aniq ajratish yanada qiyinlashadi.³

Bundan tashqari, ommaviy tartibsizliklar jinoyatida ham, guruh bezoriligi jinoyatida ham ishtirokchilar soni bo'yicha qonunchilikda aniq va qat'iy belgilangan mezon mavjud emas. Bu holat ommaviylik tushunchasining nisbiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Natijada jinoyatning ommaviy yoki ommaviy bo'lmaganligini aniqlash subyektiv baholashga olib kelishi mumkin, bu esa kvalifikatsiya jarayonida yana bir muammoni yuzaga chiqaradi.

Mazkur jinoyatlarning subyektlari nuqtayi nazaridan ham muayyan farqlar mavjud. Ommaviy tartibsizliklarda nazariy jihatdan passiv ishtirokchilar va faol ishtirokchilar tushunchalari mavjud bo'lib, ayrim shaxslar faqatgina olomon tarkibida bo'lishi, ayrimlari esa faol harakatlarda ishtirok etishi mumkin. Guruh

² Xo'janazarov X.X. Jinoyat huquqi. O'quv qo'llanma. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2016.

³ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. — Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 1997. — 56–66 betlar.



bezoriligida esa bunday farqlash kamroq ahamiyatga ega bo'lib, jinoyat sodir etishda ishtirok etgan shaxslarning barchasi, odatda, bajaruvchi sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni bezorilik jinoyatida passiv ishtirokchi tushunchasini qo'llash deyarli mumkin emas.

V.V. Borovikovaning fikriga ko'ra, ommaviy tartibsizliklar jinoyati subyektlari, odatda, oldindan til biriktirgan holda harakat qilmaydi. Uning ta'kidlashicha, mazkur jinoyatni sodir etgan shaxslar ko'pincha tashkilotchilar tomonidan muayyan psixologik ta'sirga uchraganidan so'ng, to'satdan yuzaga kelgan qasd asosida harakat qiladi. Biroq ushbu masalada boshqa yondashuv ham mavjud. Bizning fikrimizga ko'ra, ommaviy tartibsizliklarda ham oldindan kelishish yoki muayyan darajadagi rejalashtirish holatlari uchrab turishi mumkin. Chunki bunday jinoyatlar har doim ham faqat tashkilotchilarning bevosita ko'rsatmalari asosida sodir etilmaydi.

Ayrim hollarda olomon ma'lum bir huquq yoki imtiyozlarni talab qilgan holda harakat qiladi, biroq ushbu talablar qonunchilikda belgilangan tartibni buzish orqali amalga oshiriladi. Natijada dastlab qonuniy maqsad sifatida boshlangan harakatlar keyinchalik ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishi mumkin. Bu holat ommaviy tartibsizliklar jinoyatining murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlarini farqlashda qasd qaratilgan obyekt, zo'ravonlik darajasi, ishtirokchilarning roli, qurol yoki boshqa xavfli vositalardan foydalanilganligi hamda vaziyatning umumiy rivojlanish jarayoni birgalikda baholanishi lozim. Aks holda jinoyatni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish xavfi saqlanib qolaveradi.

Mazkur jinoyatlarning obyektiv tomonlarida ham muhim farqlar mavjud. Bezorilik jinoyati o'z mohiyatiga ko'ra zo'rlik ishlatish bilan uzviy bog'liq bo'lib, tajovuzkor harakatlar orqali sodir etiladi. Shu sababli zo'rlik ishlatish bezorilik jinoyatining zaruriy belgisi hisoblanadi. Ya'ni zo'rlik qo'llanilmagan holatda bezorilik jinoyati tarkibi mavjud bo'lmaydi. Ommaviy tartibsizliklar jinoyati ham ayrim hollarda zo'rlik ishlatish bilan sodir etilishi mumkin bo'lsa-da, zo'rlik bu



jinoyatning majburiy belgisi hisoblanmaydi. Aksincha, zo'rlik ishlatish ommaviy tartibsizliklar jinoyatida fakultativ belgi bo'lib, u jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi omil sifatida kvalifikatsiya jarayonida inobatga olinadi. Yuqorida bayon etilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin.⁴

1. Bezorilik uchun, jumladan bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bezorilik uchun jinoiy javobgarlik, shuningdek ommaviy tartibsizliklarni uyushtirish va ularni sodir etishda ishtirok etish ijtimoiy jihatdan asoslangan bo'lib, ijtimoiy xavfli qilmishlarni jinoiy javobgarlikka tortishning barcha mezonlariga to'liq javob beradi. Ushbu jinoyatlar jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi bilan ajralib turadi.

2. Jahon tarixi, O'zbekiston SSR, SSSR hamda O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining rivojlanish bosqichlari jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashga qaratilgan jinoiy-huquqiy normalarning uzluksiz ravishda takomillashib kelganini ko'rsatadi. Bu esa mazkur jinoyatlarni aniq farqlash, ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va adolatlilik tamoyiliga qat'iy rioya etish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

3. Bezorilik jinoyati formal tarkibli jinoyat hisoblanadi va Jinoyat kodeksining 277-moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlar sodir etilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan deb e'tirof etiladi. Ushbu jinoyatning obyektiv tomonining zaruriy belgilari jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga zarar yetkazish yoxud uni nobud qilish orqali ifodalanadi. Qurol tushunchasi esa faqat "Qurol to'g'risida"gi qonunga muvofiq o'qotar qurol sifatida e'tirof etilgan predmetlar bilan cheklanadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. — 2022-yil 14-martgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan. — Tashkent: **236**
<https://lex.uz/docs/111453?ONDATE2=14.03.2022&action=compare>



4. Bezorilik jinoyatining asosiy bevosita obyekti jamoat tartibi hisoblanadi. Jamoat tartibi deganda axloq va qonun bilan tartibga solinadigan, jamiyat tomonidan umum e'tirof etilgan xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, fuqarolarning jamoat va shaxsiy daxlsizligi, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tizimi tushuniladi. Bezorilik jinoyatining qo'shimcha bevosita obyektlariga qurollarga egalik qilishning huquqiy asoslari, transport xavfsizligi, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini ta'minlashga qaratilgan boshqa ijtimoiy munosabatlar kiradi.

5. Bezorilik jinoyati faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatchining niyati jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish va jamiyatga nisbatan ochiq hurmatsizlikni namoyon etishda ifodalanadi. Qasd ayrim hollarda to'satdan yuzaga kelgan bo'lishi mumkin, biroq ushbu holat qonunchilikda jinoyat tarkibining zaruriy yoki fakultativ belgisi sifatida mustahkamlanmagan. Shu sababli qasdning to'satdan paydo bo'lishi faqat jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qo'shimcha holat sifatida e'tiborga olinishi mumkin.

6. Amaldagi jinoyat qonunchiligi jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik bilan bog'liq bir qator ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Jumladan, urish-do'pposlash, badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish, o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, ushbu harakatlarning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi, sovuq qurol yoki qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan buyumlarni namoyish etish, ularni qo'llash bilan qo'rqitish yoki amalda qo'llash, umum e'tirof etilgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalangan o'ta behayolik, shuningdek yosh bola, qariya, nogironligi bo'lgan yoki ojiz ahvoldagi shaxslarni xo'rlash kabi holatlar bezorilik jinoyatini og'irlashtiruvchi belgilar sifatida baholanadi. Bundan tashqari, bezorilikning takroran sodir etilishi, xavfli retsidivist tomonidan amalga oshirilishi, o'qotar qurolni namoyish qilish yoki qo'llash, ommaviy tadbirlar vaqtida sodir etilishi, shuningdek jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarayotgan hokimiyat



vakiliga yoki bezorilik harakatlarining oldini olishga harakat qilgan fuqarolarga qarshilik ko'rsatish ham jinoiy javobgarlikni kuchaytiruvchi holatlar hisoblanadi.

7. Mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi boshqa shunga o'xshash xatti-harakatlar jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik sifatida baholanadi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 183-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik hisoblanadi. Mayda bezorilik bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan hollarda ham ushbu qilmish Jinoyat kodeksining 277-moddasi bilan emas, balki MJTKning 183-moddasi asosida ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

8. Huquqni qo'llash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, guruh bezoriligi asosan turli sport tadbirlari va musobaqalarini o'tkazish jarayonida sodir etiladi. Bunday holatlarda bezorilik harakatlari nafaqat tomoshabinlar va muxlislar tomonidan, balki ayrim hollarda bevosita sportchilar tomonidan ham sodir etilishi mumkin. Shu sababli sport tadbirlari bilan bog'liq vaziyatlarda jamoat tartibini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

9. Jinoyat huquqi nazariyasida mavjud turli yondashuvlarni hisobga olgan holda, ommaviy tartibsizliklar deganda ko'p sonli faol ishtirokchilar tomonidan qasddan sodir etilgan, fuqarolarga nisbatan zo'ravonlik qo'llash, talon-taroj qilish, o't qo'yish, mulkni yo'q qilish, shuningdek qurol-yarog', portlovchi qurilmalar, portlovchi, zaharli yoki boshqa xavfli moddalar va ashyolardan foydalanish, hokimiyat vakillariga qurolli qarshilik ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar tushunilishi lozim, deb hisoblaymiz.

10. Jamoat tartibi deganda fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash, o'zga shaxslarning mulkini muhofaza qilish, jamoat va davlat tashkilotlari, korxonalar hamda muassasalarning normal faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan, axloq va huquq normalariga asoslangan ijtimoiy munosabatlar tizimi tushuniladi.



11. Ommaviy tartibsizliklar jinoyatining tugallanish vaqti o'ziga xos xususiyatga ega. Ommaviy tartibsizliklar uyushtirilganda, jamoat joylarida bo'lgan ishtirokchilar tartibsizliklarni sodir etishga qat'iy qaror qilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan deb hisoblanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlar amalda bajarilgan yoki bajarilmaganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

12. Ommaviy tartibsizliklar jinoyatini sodir etishga qaratilgan rejalarni tuzish, aholini yoki muayyan shaxslar guruhini olomon sifatida to'plashga urinishlar mazkur jinoyatni sodir etishga **suiqasd qilish** sifatida baholanishi lozim. Chunki bu kabi harakatlar jinoyatni amalga oshirishga bevosita yo'naltirilgan bo'lib, ularning ijtimoiy xavfliligi yuqori darajada namoyon bo'ladi.⁵

13. Ommaviy tartibsizliklar jinoyatining tashkilotchisi, odatda, oldindan o'ylangan harakatlar asosida va to'g'ri qasd bilan faoliyat yuritadi. Jinoyatning ishtirokchilari ham, qoida tariqasida, to'g'ri qasd bilan harakat qiladi. Shu bilan birga, ishtirokchilarga nisbatan qasd nafaqat oldindan shakllangan bo'lishi, balki muayyan vaziyat ta'sirida to'satdan vujudga kelishi ham mumkin. Mazkur holat faqatgina ishtirokchilarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lib, jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida alohida e'tiborga olinishi lozim.

14. Ommaviy tartibsizliklar jinoyati va guruh bezoriligi ko'p jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ular o'rtasida yetarlicha farqlar mavjud. Ushbu jinoyatlarni farqlashda, avvalo, jinoyat obyektiga e'tibor qaratish zarur. Turli ilmiy yondashuvlarni tahlil qilgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur jinoyatlarning umumiy obyekti jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Shu o'rinda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi bir xil tushunchami, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligiga tajovuz qilinganda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetadi yoki bunday zarar yetishining real xavfi vujudga keladi. Jamoat tartibi buzilganda esa ushbu munosabatlar beqarorlashadi va jamiyatda barqarorlik izdan chiqadi.

⁵ Наумов А.В. Российское уголовное право. Особенная часть. — Москва: Юрист, 2017.



Mazkur jinoyatlarni farqlashda yana bir muhim mezon ishtirokchilar soni hisoblanadi. Ommaviy tartibsizliklarda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga tajovuz qiladigan ko'p sonli shaxslar, ya'ni olomon effektini vujudga keltirishga yetarli miqdordagi ishtirokchilar nazarda tutiladi. Bunda faqat faol ishtirokchilar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Guruh bezoriligida esa nisbatan tor doiradagi shaxslar ishtirok etadi va ularni olomon deb baholab bo'lmaydi. Guruh bezoriligi ishtirokchilarining barchasi jamoat tartibini qo'pol ravishda buzadi hamda jamiyatga nisbatan ochiqdan-ochiq hurmatsizlik ko'rsatadi. Shu sababli bezorilik jinoyatida ishtirokchilarni faol va passiv guruhlariga ajratish mumkin emas.

Mazkur jinoyatlarning obyektiv tomonlarida ham muhim farqlar mavjud. Bezorilik jinoyati zo'rlik ishlatish bilan uzviy bog'liq bo'lib, tajovuzkor xatti-harakatlar orqali sodir etiladi. Ya'ni zo'rlik ishlatish bezorilik jinoyatining zaruriy belgisi hisoblanadi. Ommaviy tartibsizliklar jinoyati ham zo'rlik ishlatish bilan sodir etilishi mumkin bo'lsa-da, zo'rlik bu jinoyatning majburiy belgisi emas. Aksincha, zo'rlik ommaviy tartibsizliklar jinoyatida fakultativ belgi bo'lib, jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qo'shimcha holat sifatida inobatga olinadi. Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bezorilik va ommaviy tartibsizliklar jinoyatlarini farqlash hamda ularni kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, ommaviy tartibsizliklar jinoyatining majburiy belgisi sifatida uning motivini normativ jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Amaldagi qonunchilikda jinoyat motivi (siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy yoki diniy adovat) hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ommaviy tartibsizliklar ko'pincha aynan ushbu omillar negizida yuzaga keladi. Shu bois mazkur belgilarni tegishli norma dispozitsiyasida aks ettirish lozim.

Ikkinchidan, ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilarining talablari qonuniy bo'lgan hollarda, mazkur qilmishni ommaviy tartibsizlik sifatida baholamaslik masalasini ko'rib chiqish zarur. Chunki ayrim holatlarda fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirish uchun boshqa huquqiy vositalar mavjud bo'lmagan sharoitda



jamoaviy harakatlarga majbur bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatlarda talablarning qonuniyligi qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holat sifatida e'tirof etilishi lozim.

Uchinchidan, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi tushunchalarini yuridik jihatdan yanada asoslab, ularga aniq va kengroq ta'rif berish maqsadga muvofiqdir. Bu jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, Oliy Sud Plenumining qarorlari orqali ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda ularning sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratish lozimligi tavsiya etilishi zarur.

Beshinchidan, ommaviy tartibsizliklar jinoyatini sodir etish uchun zarur bo'lgan ishtirokchilar sonining minimal miqdorini qonunchilikda belgilash foydali bo'ladi. Xalqaro tajribada bunday yondashuvlar mavjud. Masalan, Buyuk Britaniyada 1986 yilda qabul qilingan "Jamoat tartibini saqlash to'g'risida"gi Aktga muvofiq, ommaviy tartibsizliklarda kamida o'n ikki nafar shaxs ishtirok etishi lozim. AQShda esa ommaviylik belgisi qonuniy yoki noqonuniy maqsadga erishish uchun uch va undan ortiq shaxslarning birgalikda harakat qilishi bilan belgilanadi. Shu sababli O'zbekiston qonunchiligida ham ishtirokchilar sonining minimal miqdorini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, bezorilik jinoyatini kvalifikatsiya qilishda transport bezoriligi uchun alohida javobgarlik belgilash zarur. Hozirgi vaqtda transport vositalarida sodir etilgan bezorilik harakatlari uchun to'g'ridan-to'g'ri maxsus javobgarlik normasi mavjud emas va bunday qilmishlar Jinoyat kodeksining boshqa, bezorilik belgilarini to'liq qamrab olmaydigan normalari asosida baholanadi. Shu bois mazkur masalani qonunchilikda aniq tartibga solish lozim.

Ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlari tashqi jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularni jinoyat-huquqiy jihatdan farqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda jinoyat obyektiga, ishtirokchilar soniga, ularning roli hamda sodir etilish shakliga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ommaviy tartibsizliklarda jamoat xavfsizligiga real tahdid mavjud bo'lib, bu holat



ko‘p sonli shaxslarning ishtiroki va olomon effektida namoyon bo‘ladi, bezorilikda esa jamoat tartibining qo‘pol buzilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ommaviy tartibsizliklar jinoyatida zo‘rlik ishlatish majburiy belgi bo‘lmay, fakultativ xususiyatga ega, bezorilik jinoyatida esa zo‘rlik jinoyat tarkibining zaruriy belgisi hisoblanadi. Shuningdek, ommaviy tartibsizliklarni uyushtirishga qaratilgan tayyorgarlik harakatlari jinoyatga suiqasd sifatida baholanishi lozim.

Mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi muammolarni bartaraf etish uchun jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi tushunchalarini qonunchilikda aniq belgilash, ommaviy tartibsizliklarda ishtirokchilar sonining minimal mezonini joriy etish hamda huquqni qo‘llash amaliyotini yagona yondashuv asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** — Yangi tahrir. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilingan. — Toshkent, 2023.
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.** — 2022-yil 14-martgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan. — Toshkent.
<https://lex.uz/docs/111453?ONDATE2=14.03.2022&action=compare>
3. **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.** — Toshkent.
Manba: <https://lex.uz/docs/111460>
4. **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar.** — Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 1997. — 56–65-betlar.
5. **Ochylov Hasan Rashidovich.** Savollar va javoblar. *Jinoyat huquqi (Umumiy qism).* — Toshkent, 2009.
6. **Ismoilov B.B.** Jinoyat huquqi. Maxsus qism. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018.
7. **Xo‘janazarov X.X.** Jinoyat huquqi. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2016.



8. **Rustamov S.R.** Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. — Toshkent, 2015.
9. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari.** Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bo‘yicha sud amaliyoti. — Toshkent.
10. **Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi.** — Amaldagi tahrir. — Moskva, 2022.
11. **Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining qarorlari.** Ommaviy tartibsizliklar va bezorilik jinoyatlari bo‘yicha sud amaliyoti. — Moskva.
12. **Borovikova V.V.** Массовые беспорядки: уголовно-правовая характеристика. — Москва, 2010.
13. **Наумов А.В.** Российское уголовное право. Особенная часть. — Москва: Юрист, 2017.
14. **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.** — BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan. — Nyu-York.